



12.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



Ro'yxatga olindi: № MD-5A120101
2020 yil "08" "08"

**MUTAXASSISLIKNING NAZARIY MASALALARI
(KOREYS)**

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000	– Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	120000	– Gumanitar fanlar
Mutaxassislik:	5A120101	– Adabiyotshunoslik (sharq tillari)

Fan/modul kodi 5AMNM125	O'quv yili 2020-2021	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Mutaxassislikning nazariy masalalari	60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda koreys adabiyotining muammoli masalalari, mumtoz va zamonaviy davr adabiyotini davrlashtirish muammolari, janrlarning rivojlanish qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlari, janr va uslubning munozarali masalalari, turli badiiy – ifodaviy vositalarni o'rganish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Fanning vazifasi – talabalarga koreys adabiyotshunosligi masalalari, badiiy asar tili, uslubi, janr xususiyati, nasriy va nazmiy janrlar doirasida ilmiy muammolar va ularni tahlil qilishni, koreys adabiyotshunosligida dolzarb masalalarni ajratib ko'rsata olish, tadqiq va xulosa chiqarishni o'rgatishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Mumtoz va zamonaviy koreys adabiyotini davrlashtirish muammolari Mumtoz davr koreys adabiyotini davrlashtirish masalalar. Zamonaviy koreys nasri va nazmini davrlashtirish masalalari. Sulola va asrlar bo'yicha davrlashtirishda muammolar. 2-mavzu. O'rta asrlar koreys adabiyotining yetakchi konsepsiyalari O'rta asr koreys qissalarida ilgari surilgan ma'naviy-estetik konsepsiyalar: xyo, xan, mot kategoriyalari. Milliy qadriyatlarining inson faoliyatidagi o'rni. Nasrda yaxshilik va yomonlik, nafrat va muhabbat, ezgulik va yovuzlik, shaxs konsepsiyalarining qo'yilishi. 3-mavzu. Koreys adabiyotida adabiy qahramon masalasi Adabiy qahramon – adabiyotning muhim nazariy masalasi. Adabiy qahramon obrazi. Adabiy qahramon prototipi. Tarixiy shaxslar obrazi. 4-mavzu. Pak Chivonnong estetik qarashlari Koreys nasrida realistik metod. Koreys adabiyoti rivojida Sirxak			

	13. http://altaica.narod.ru/t-korean.htm 14. http://www.naver.com/모더니즘/시의 경우 .
7.	Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil "19" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "19" 08 dagi 452 - sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: U.T.Saydazimova – TDSHU "Koreys filologiyasi" kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori.
9.	Taqrizchilar: V.N.Kim – TDSHU "Koreys filologiyasi" kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori; O.J.Latipov – Nizomiy nomidagi TDPU "Rus tili va adabiyoti, uni o'qitish metodikasi" kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi, (turdosh OTM).

	• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar tayyorlash; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
6.	IX. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
7.	Asosiy adabiyotlar 1. Ким В.Н. Теоретические вопросы специальности. –Ташкент, 2013. 2. Сайдазимова У.Т. Поэтика корейской поэзии. – Тошкент, 2013. 3. Saydazimova U.T., Choy So Yong. Koreys adabiyoti. – Toshkent, 2015. 4. Акбарова М.Х. Теоретические проблемы специальности. – Т.: 2013. Qo'shimcha adabiyotlar 5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11. 6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b. 7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b. 8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b. 9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. www.lex.uz. 10. Сайдазимова У.Т., Чой Со Ёнг и др. «Корейская литература». Учебное пособие. Ташкент, 2015. Axborot manbalari 11. www. Ziyonet.uz 12. http://www.philology.uz

	harakati. Adabiy qahramonga nisbatan yangicha yondashuv. Pak Chivon adabiy uslubi. 5-mavzu. Zamonaviy koreys adabiyoti shakllanishida ma'rifatparvarlar va arxaistlarning falsafiy nazariyalari Fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va o'rganish usullari. Arxaistlar ilgari surgan g'oyalar. Ma'rifatparvarlar harakatida umuminsoniy masalalarning berilishi. Ona tili uchun kurash. 6-mavzu. Koreys adabiyotshunosligida adabiy tanqid Koreys adabiyotida tanqidchilik. Adabiy tanqid mohiyati. Tanqid tarixi. Badiiy asar tanqidi. Koreys adabiyotida munosat va tanqid. Sin Chxexoning birinchi tanqidchi sifatida adabiy jarayonlarga munosabati. 7-mavzu. Koreys proletar adabiyotining shakllanish jarayoni va yangi nazariy qarashlar XX asr inqilobiy o'zgarishlar davri. Yangi yo'nalish maktabi ijodiy metodi. Koreys proletar maktabi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillar. 8-mavzu. XX asr koreys adabiyotida modernizm She'riy tizim ma'lum bir xalq tilining o'ziga xos xususiyati sifatida. Koreys adiblarning mashhur jahon adabiyoti namoyondalari ijodi bilan tanishish davri. “Sof she'riy harakat” yoki “inqilob” she'riy harakati. Modernizm – turli-tuman adabiy maktab va yo'nalishlarni (ekspressionizm, impressionizm, simvolizm, akmeizm va b.) o'ziga asos bilgan estetik tizim. Koreys modern adabiyotida Li San ijodi. 9-mavzu. Mafkuraviy kurashlar davri koreys adabiyoti Yozuvchi va shoirlar o'rtasidagi mafkuraviy kurash. «Yosh ijodkorlar tashkiloti». «Koreys yozuvchilari ligasi». Milliy adabiyot harakati. Adabiy faoliyat va milliy adabiyotda g'oyaviy birlik. 10-mavzu. XX asr ikkinchi yarmi koreys adabiyotida davr haqiqati masalasi XX asr ikkinchi yarmi adabiyotda katta avlod vakillari masalasining qo'yilishi. Milliy an'ana va yalpi madaniyat. <i>Keling, yaxshi yashash uchun harakat qilamiz!</i> shiorining ahamiyati. 11-mavzu. Koreys adabiyotining Koreya va xorijda o'rganilish masalasi Koreys adabiyotining Rossiya va MDH davlatlarida o'rganilishi. Koreys adabiyotining inglizxabon olimlar tomonidan o'rganilishi. Xorijiy tillarga tarjima qilingan koreys nasri va nazmi. 12-mavzu. Koreys adabiyotshunosligiga oid O'zbekistonda amalga oshirilgan ilmiy ishlar Koreys adabiyoti bo'yicha ilk tadqiqotlar. Koreys adabiyotidan
--	---

tayyorlangan o'quv qo'llanma mazmuni. Koreys adabiyotidan tarjimalar.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Koreys matbuotining tanqidchilikni ommaviylashtirishdagi roli
2. Kim Donin, Li San adabiy tanqid vakillarining nazariy qarashlari
3. Koreys adabiyotida avlodlar muammosi masalasining qo'yilishi
4. Koreys adabiyotida simbolizm: an'ana va novatorlik
5. Koreys adabiyotida adabiy maktab va yo'nalishlar
6. Zamonaviy koreys adabiyoti rivojida matbuotning roli
7. Zamonaviy koreys adabiyotida ona tili uchun kurash masalasi
8. Milliy adabiyot harakatining koreys adabiyoti rivojidagi o'rni
9. Adabiyot va madaniyat: o'zaro ta'sir masalalari

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Kurs ishi bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishining hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Kurs ishi uchun quyidagi tahminiy mavzular tavsiya etiladi:

1. Mumtoz davr sharq xalqlari adabiyotida nasriy janrlarning o'ziga xosligi
2. Mumtoz davr sharq xalqlari adabiyotida nazmiy janrlarning o'ziga xosligi
3. Zamonaviy davr sharq xalqlari adabiyotida nasriy janrlarning o'ziga xosligi
4. Zamonaviy davr sharq xalqlari adabiyotida nazmiy janrlarning o'ziga xosligi
5. Sharq xalqlari adabiyotida badiiy asar talqini va tanqidi
6. XX asr boshi sharq xalqlari adabiyotiga G'arb madaniyatining ta'siri masalalari
7. XX asr boshi sharq xalqlari adabiyotida adabiy jarayonlar
8. Sharq xalqlari adabiyotida badiiy asarni biografik, psixologik, immanent va struktural tahlil qilish jarayonlari
9. Sharq xalqlari adabiyotida muttasil rivojlanayotgan janr –romanchilik

10. Sharq xalqlari adabiyotida mustamlakachilikka qarshi kurash va istiqloq masalalarining yoritilishi

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ilmiy to'plamlardagi maqolalarning asosiy mavzular
2. Koreys adabiyotida ingliz zabon yozuvchilar
3. Turli maktablarning adabiy merosi
4. Koreys adiblarining falsafiy qarashlari

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3 VI. Fan bo'yicha tavsiya etiladigan kurs ishlari mavzulari

1. Koreys adabiyoti tanqidchiligida Pak Insik qarashlarining nazariy asoslari
2. Arxaistlar va ma'rifatparvarlar o'rtasidagi ma'naviy kurash
3. Bugungi kun adabiyotining dolzarb masalalari
4. Zamonaviy ayol adibalar ijodiga tanqidiy yondashuvlar

4 VII. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Koreys adabiyotshunosligining nazariy masalalari, koreys adabiyotining jahon adabiyotida tutgan o'rni, bashariyat taraqqiyotidagi ulushi, koreys adabiyotining badiiy tafakkur doirasida voqelikka munosabati, koreys adabiyoti tarixi va bugungi kun adabiyotida dolzarb muammolar, koreys adabiyotida qo'llanilgan badiiy vositalar, badiiy san'atlar haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*;
- Koreys taniqli adabiyotshunos olimlarining nazariy qarashlari, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqidchilik to'g'risida bilimlarni egallashi, Yevropa an'alaridan koreys adabiyotining milliy xususiyatlarini ajrata olish, adabiy ta'sir masalalarini talqin qilish bo'yicha *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;
- talaba koreys adabiyotida o'rta asrlar va hozirgi zamon adabiy ta'sir masalalari, koreys adabiyoti bo'yicha sharq va g'arb tillari, xususan O'zbekistonda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, koreys tilida adabiy asarlarni o'rganishda nazariy bilimlarni qo'llay olish, nazariy masalalarni o'rganishda turli metodologik tamoyillar to'g'risida aniq *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

5 VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;